

## Talabalarda ijtimoiy faollik rivojlanishining psixologik mexanizmlari

Feruz Furqatovich Ganjiyev  
olimovlaziz82@gmail.com  
Buxoro davlat unversiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalar ijtimoiy faolligini oshirish ijtimoiy psixologik zaruriyat sifatida ekanligining amaliy jihatlari yoritib berilgan. Maqola mazmunida talabalar ijtimoiy faolligini oshirish ijtimoiy psixologik zaruriyatni konseptual asosda tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy faollik, axloqiy jihatlar, yetuklik, jamiyat.

## Psychological mechanisms of development of social activity in students

Ganjiyev Feruz Furqatovich  
olimovlaziz82@gmail.com  
Buxoro davlat unversiteti

**Abstract:** This article highlights the practical aspects of increasing student social activism as a social psychological necessity. The content of the article analyzes the social psychological necessity of increasing the social activity of students on a conceptual basis.

**Keywords:** Social activism, ethical aspects, maturity, society.

Respublikamizda ta'lrim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatlari, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi kadrlarni yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo'lgan vazifalarni qo'yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri - ijtimoiy yetuklikning jadal sur'atlar bilan ro'yobga chiqishidir. Bunda yetuklik shaxsdan zarur aqliy qobiliyat, hayot va faoliyatda bajariladigan turli rollarni egallashni talab qiladi. Ayniqsa, aqliy yetuklik (kamolot) muhim ahamiyat kasb etadi. Talabaning darslarga o'z vaqtida qatnashishi, berilgan vazifalarni bajarishi intellekt rivoji dinamikasiga negiz bo'la olmaydi, bu esa aqliy taraqqiyotni diagnostika qilish uchun yetarli emasdir.

Yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o'rghanish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir. Biz tadqiqot ob'ekti sifatida oliv ta'limning talabalarni (jami respondent 482 nafar) ajratib olgan edik. Bularning 241 nafari Buxoro davlat universitetining «Pedagogika» fakulteti talabalari va 241 nafari Buxoro davlat universiteti «Tabiiy fanlar» fakulteti talabalari hisoblanadi. Tadqiqot ishi oldida turgan vazifalarni hal etish maqsadida quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan: talabalar kasbiy shakllanishi jarayonida aqliy qobiliyatlarini va umumiy intellektual imkoniyatlarini o'rghanish maqsadida suhbatlar uyuşhtirilgan; talabalarning ta'lim jarayonidagi intellektual salohiyati kuzatilgan; talabalarning aqliy qobiliyatini aniqlashda Dj.Ravenning «Progressiv matriksalari» testi qo'llanilgan; talabalarning V faktor bilan bog'liq so'zlar bilan ishlash imkoniyati «Maqollarni ta'birlash» testi, N sonlar bilan ishlay olish faktori «Sonlar qatori» va «Sonlarning mantiqiy qatori», «matematik intellekt» testlari, amaliy va motor faoliyat bilan bog'liq «amaliy intellekt» va fazoviy idrok bilan bog'liq «vizual intellekt» testlaridan foydalanish ko'zda tutilgan. J.Gilford va M.Sallivenaning «Umumiy intellektning diagnostikasi» metodikasidan foydalanilgan. V.V.Boykoning «Empatik qibiliyatlar darajasi diagnostikasi» metodikasi qo'llanilgan. J.Gilford divergent va konvergent tafakkur turlari negizida ijodiy tafakkur yotishini asoslab bergen. Talabalarning umumiy intellektini tahlil etishda topshiriqlarning tuzilish tamoyillarining xarakterli holatlari inobatga olingan. Dj.Raven metodikasi bo'yicha talabalarning umumiy intellekt koeffitsenti  $IQ = 92,75 \pm 11,73$  bo'lgan edi. Bu esa intellektning o'rtacha va o'rtachadan yuqori natijalari orasidagi qiymatlarning aks ettirganligi bilan xarakterlanadi (1-jadval).

1-jadval

Talabalarning umumiy intellekt ko'rsatkichlari (Dj.Raven metodikasi).

	Pedagogika		Ijtimoiy gumanitar		Qizlar		Yigitlar		Umumiy IQ	
	M	Y	M	Y	M	Y	M	Y	M	Y
IQ	95,34	11,38	90,16	11,61	94,18	10,13	92,70	7,12	92,75	11,73
IT	2,13				1,42				* p<0,05	

2-jadval

Talabalar intellekt diagnostikasi natijalari.

Xususiyat	M	Y	IQ
Analogiya	5,85	1,45	O'rta
Tushunchalarini muhim belgilariiga ko'ra ajratish	5,39	2,03	O'rta
Vizual intellekt	28,42	3,25	O'rtachadan past (90 ga yaqin)
Amaliy intellekt	17,17	2,79	O'rtachadan past (90)

Pedagogika ( $IQ = 95,75 \pm 11,38$ ) va ijtimoiy gumanitar ( $IQ = 90,16 \pm 11,61$ ) yo‘nalish talabalarining natijalarini o‘zaro taqqoslaganda ham ularning qiymatlari orasidagi ko‘rsatkichlar bir-biridan keskin farq qilmagan bo‘lsa-da, ammo ularning ko‘rsatkichlari orasida farq kuzatildi ( $t=2,13$ ,  $p<0.05$ ) (2-jadval). Natijalardan ko‘rinadiki, ijtimoiy intellekt ko‘rsatkichlari bilan boshqa intellekt ko‘rsatkichlari orasidagi munosabatlar ancha ijobiy o‘sishda ekan. Bundan ko‘rinadiki, talabalarning umumiyligi intellektiga nisbatan ijtimoiy intellektidagi o‘sish alomatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning mezonlari orasida ham nisbiy bo‘lsa-da, o‘zaro bog’lanishlar mavjud. Ijtimoiy intellektning asosiy vazifalaridan biri uzoq muddatli o‘zaro munosabatlarni shakllantirishdir. O‘zaro munosabatlarning darajasi va xarakterini tushungan holda kelajakda bir-biriga ijobiy ta’sir o‘tkazish va munosabatlarni mustahkamlashdan iboratdir. Ijtimoiy intellektning favqulotda yuz beradigan inqirozlar, uzoq cho‘ziladigan stresslar, o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni tushunib yetishi holatlarida yordam beruvchi mobilizatsion funktsiyasi juda muhim hisoblanadi. Umumiyligi intellektning tarkibidan farqli ravishda, ijtimoiy intellektning tarkibida o‘z-o‘zini anglashning shaxsga oid xususiyatlari va xarakteristikalari katta rol o‘ynaydi. Bunda o‘z-o‘zini anglash «mashaqqatli», komplekslar va psixologik himoya to‘siqlari bilan to‘lib-toshgan bo‘lmashligi kerak. Shuning uchun ham avtoritar shaxsda ijtimoiy intellektning yuqori ko‘rsatkichlari juda kam uchraydi. Bunday shaxs odamlar bilan muomalaga kirishganda ko‘zga tez tashlanmaydigan qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, odamlarni yomon tushunadi (ayniqsa, boshqa jinsdagilarni), ular bilan chiqishib keta olmaydi, ba’zida esa u odamlardan umuman qo‘rqadi. Bunday insonning o‘z-o‘zini anglashi rivojlanmaganligi sababli komplekslarga to‘la bo‘ladi. Shaxsiy qiziqishlari kam bo‘ladi yoki bo‘lmaydi, o‘zini anglamagan holda agressivlikka beriluvchan bo‘ladi. Ijtimoiy intellekt «inson-inson» tipi sohasidagi kasblarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, pedagoglar, psixologlar, psixoterapevtlar, jurnalistlar, menejerlar, huquqshunoslar, shifokorlar, siyosatchilar, tadbirkorlar faoliyatini prognoz qila olish imkoniyatini beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijtimoiy intellektning yoshga qarab o‘sib borishini kuzatishimiz mumkin, jumladan, birinchi bosqichlarning ijtimoiy intellektini o‘rganish metodikalari bo‘yicha ko‘rsatkichlarida muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish mezoni bilan verbal ekspressiyani tushunishi hamda shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish omillari o‘rtasida korrelyatsion munosabat kuzatilgan. So‘ngra verbal ekspressiya va shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tashkil etish omillari o‘rtasida ham korrelyatsion munosabat kuzatilgan. Bu holat birinchi bosqich talabalarida «Men» konsepsiysi va «Men» timsoli yaxshi shakllanganligini ko‘rsatadi. Ular odamlar o‘rtasidagi qiyin holatlar, vaziyatlarning shakllanishidagi mantiqini tushunadilar, boshqa kishilar bu holatga jalb etilsa, bu holatning o‘zgarishi mohiyati nimalardan iborat ekanligini his etadilar. Birinchi bosqich talabalarida ijtimoiy intellekti rivojlanishida uchraydigan

kamchilik ularning xulq-atvorni tushunish qobiliyatlarini yaxshi shakllantirmaganliklaridadir. Ikkinci bosqichlarning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlari munosabatlari tahlilida muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish o'z o'rnida yaxshi rivojlanganligi noverbal hulq-atvorni tushunish, verbal ekspressiyalarni tushunishga olib kelgan. Uchinchi bosqich talabalarida muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatları tushunish omili va shaxslararo o'zaro ta'sirlashuvni tahlil etish omillari bir-birini taqozo qiladi va korrelyatsion aloqa mavjud. Noverbal va verbal ekspressiyani tushunish layoqati kuzatilgan. Umumiy natijalarda juda ko'p korrelyatsion munosabatlar kuzatilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagicha xulosaga kelish mumkin: yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo'lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o'rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir. Yoshlarning shaxslararo munosabatlarda intellektual qobiliyatları birligida ijtimoiy muhit, suhbatdoshlarning xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlari, kechinmalarini baholash imkoniyatlari qonuniyat jihatidan mustahkam bog'liqdir. Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikr va niyatlarini tushunish qobiliyatiga egalik ijtimoiy intellektning o'sishiga ham, murakkab mantiqiy munosabatlarni tushunishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, tushunchalarning muhim jihatlarini farqlay olishni axborotlarni ko'rish orqali qayta ishslash imkoniyatlarining o'sishiga olib kelib, yoshlarning kasbiy va shaxsiy kamolotida o'z-o'zini namoyon etishida ko'rindi. Ushbu natijalar dars mashg'ulotlarida innovatsion ta'lim texnologiyalari elementlaridan foydalanilganda, ularga interfaol ta'lim usullarini joriy etish ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishidagi kasbiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsata olgan. Innovatsiyalardan foydalanishda o'quv materialining mazmuni o'qituvchi tomonidan qayta ishlab chiqilishi, talabaga murakkab tuyulgan terminlarni izohlab berishi, uning ongida aqliy faoliyatini uyg'otishi hamda kuchaytirishi talab qilinadi. Buning uchun mavzuning mazmuni axborot shaklidagi tushunchalardan muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlarga aylantiriladi. Talaba oldiga muammo qo'yilganda uni hal etish, yechimini topishga xohish tug'iladi. Xuddi shu holatda talabada aqliy faollik namunalari paydo bo'ladi. Uni ro'yobga chiqarishda interfaol metodlar o'zining samarali natijasini beradi. Innovatsion yondashuv jarayonida bilim talabalarning o'z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo'ladi va xulq-atvor shaklining ham o'zgarishiga ta'sir qiladi. Ayniqsa ta'limni muammoli tashkil etish talaba o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni yanada muvaffaqiyatliroq chiqishi uchun psixologik asoslarga e'tiborni qaratish kerak. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni talaba ongiga yetkazish, esga olish, esda saqlash, qayta esga tushirish, so'zlab berish,

yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida talabalar olgan bilimlarini amalda tatbiq etishi, ma'lum natijalarni qo'lga kiritishi, to'ldirishi, boyitishi, o'zgartirishi, o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lishi talab etiladi. Bu o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlari innovatsion texnologiyalardan foydalanish borasida katta imkoniyatlarga ega. Darhaqiqat, o'quv mashg'ulotlari uning doimiy ravishda bir xilda takrorlanishi talabalarda loqaydlik, bilim olishga nisbatan mas'uliyatsizlik kayfiyatini hosil qiladi. Ayni vaqtda bunday holatning oldini olishning eng samarali yo'li sifatida ta'lim muassasalari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni izchil va maqsadga muvofiq ravishda tatbiq etish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ганжиев Ф.Ф., Қодирова М.Д. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari ijtimoiy-psixologik moslashuvining oziga xos xususiyatlari. //Педагогик маҳорат. Илмий журнал. – Бухоро. 2020.№2. – Б. 109-111. (19.00.00. №7).
2. Ганжиев Ф.Ф., Тўлаев X.O. Researching the scope of the professional competence within activities. //International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor ICV = 6. 630 Philadelphia, USA. 2019. –Б. 388-391.
3. Ганжиев Ф.Ф., Косимова С.Б. Heads of competence in psychologically school education. International journal of scientific & Technology research volume 9, issue. 2020. -Б. 2787-2789.
4. Ganjiyev F.F.. The basis of social and psychological adaptation of children in the conditions of preschool education. Bulletin of integrative psychology. Journal for psychologists, 59-64.
5. . Ганжиев Ф.Ф. Особенности психологической защиты человека в экстремальной ситуации. Лазаревские чтения Лики традиционной культуры в, 2018. С. 117-118.
6. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психолигик ҳимоя механизmlарининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b.
7. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 3 son 98-106 b.
8. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiypsixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

9. Olimov L.Ya., Bahronova M.O.'O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.
10. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
11. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
12. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
13. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
14. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
15. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
16. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
17. Олимов Л.Я. Социально-психологический подход к исследованию конфликтов. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 379-381 ст.
18. Олимов Л.Я. Теоретические основы педагогической технологии. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2018 год, Выпуск 18. 163-165 ст.
19. Олимов Л.Я. Теоретический анализ проблемы креативности в психологии. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 23, 2021 г. С 237-241.
20. Олимов Л.Я., Жумаев Н.З. Педагогическое общение педагога со студентами. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2017 год, Выпуск 15. 198-203 ст.
21. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Диагностика Управленических Способностей. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 2, 2020 г. С 204-209.
22. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.
23. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик

хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. Psixologiya ilmiy jurnali. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

24. Elov Z.S. Axmedova A.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq buzilishlari va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri. respublika ko'p tarmoqli ilmiy tadqiqotlar sammiti. 02/2022. 234-237.

25. Sharifova M.Z. Elov Z.S. Priorities of psychological services in preschool educational organizations. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Volume 3, Issue 3, Mar., 2022. 900-904

26. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447

27. Elov Z.S. Nutqda uchraydigan buzilishlar va ularni yuzaga keltiruvchi sabablarning bola ruhiyatiga psixologik ta'siri. Pedagogik mahorat (Ilmiy-nazariy metodologik jurnal). 1, 2022 fevral 103-105

28. Elov Z.S. Ichki ishlar organlari xodimlari orasida suisidal xulq motivasiyasi namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik sabablarI. The best INNOVATOR IN SCIENCE №1 2022. 583-591

29. F.F.Usmonov, Z.S.Elov. Suicide – as a global problem facing humanity. web of scientist: international scientific research journal. Volume 3, Issue 2, Feb., 2022 349-354

30. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009

31. Z.S.Elov. Suicide as a global problem facing humanity. Science and Education №2. 2022 1247-1252

32. Вестник интергративной психологии. 2017 208-212